

O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING XOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

Axmedov Abdulhay

*Andijon davlat pedagogika instituti “ijtimoiy fanlar”
kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kundagi yangi O'zbekiston kasaba uyushmalarini rivojlantrish, jamoatchlik va ishchilarining huquqlarini himoya qilishda davlat bilan faol ravishda harakatlanuvchi subektlaridan hisoblanadi. Ushbu maqolada jamoat tashkilotlaridan hisoblangan kasaba uyushmalari tashkilotlarining qilayotkan samaraliy ishlari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: mehnat, ish beruvchi, fuqorolik jamiyati, yangi O'zbekiston, xodim.

Аннотация: Данная статья является одной из тем нового Узбекистана, активно взаимодействующей с государством в развитии профсоюзов, защите прав населения и трудящихся. В данной статье рассматривается эффективная работа профсоюзных организаций, являющихся общественными организациями.

Ключевые слова: труд, работодатель, гражданское общество, новый Узбекистан, работник.

Annotation: This article is one of the subjects of the new Uzbekistan that is active with the state in the development of trade unions, protection of the rights of the public and workers. This article discusses the effective work of trade union organizations, which are public organizations.

Key words: labor, employer, civil society, new Uzbekistan, employee.

KIRISH

Kasaba uyushmalari dunyodagi zamonaviy siyosiy hayotning eng muhim sub'ektlari sarasiga kiradi. Mehnat munosabatlarda xodim va ish beruvchi bevosita hamda, bilvosita munosabatlarga kirishishlari mumkin. Ushbu munosabatlarda xodimning yoki ish beruvchining vakillari va vakillik organlari amalga oshiradi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksining 21-moddasida bataysil yorilinib o'tilgan.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar mehnat munosabatlarining va kasaba uyushmalarining mazmuni va xarakterida ham katta o'zgarishlarni ko'rishimiz va buni isboti o'loroq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasining bir qancha deputatlari tashabbusi bilan, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi mutaxassislari hamkorligida Qonun loyihasi ishlab chiqiladi va 2019 yilning 9 iyul kuni "Ishonch" va "Ishonch-Doverie" gazetalarida nashir qilinadi, hamda ommaviy axborot vositalari hamkorligida umumxalq muhokamasiga qo'yilgan.

Kasaba uyushmalari jismoniy shaxslarning mehnat faoliyatini amalga oshiradigan faol fuqarolik jamiyati institutlaridan xisoblanadi.

Kasaba uyushmalari faoliyatida davlat boshqaruv organlari, xo'jalik idoralri va siyosiy partiyalardan mustaqil xisoblanadi, shuningdek ular oldida xisobdor emas va ular tamonidan nazorat qilinmaydi albatta qonunchlikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasino. Qonunchlikda kasaba uyushmalarining huquqlarini cheklaydigan yoki huquqlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan har qanday aralashuv man qilingan. Kasaba uyushmalari o'z nizom va ustavlarida belgilangan maqsadlarga va vazifalariga asoslanib chet el kasaba uyushmalari bilan hamkorlik qilishi, o'z xohishiga ko'ra, xalqaro va boshqa kasaba uyushmalariga hamda kasaba uyushmalariga aloqador tashkilotlarga kirish huquqiga ega xisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni munosabati bilan O'zbekiston kasaba uyushmalari xodimlari va ushbu sohaning faolariga tabrigida takitlaganidek "Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan barcha ish beruvchilar va rahbarlar butun dunyoda tan olingan quyidagi qoidaga amal qilishlarini istardim: har qaysi korxona yoki tashkilotda albatta kasaba uyushmasi faoliyat ko'rsatishi va rahbarlar albatta ular bilan yaqin hamkorlikda ish olib borishi shart. Shundagina jamiyatimizda mehnat qonunchiligi buzilishi holatlarining oldi olinadi, hayotimizda ijtimoiy adolat yanada mustahkam qaror topadi."¹

ADABIYOTLAR SHARHI

Jahondagi ilg'or davlatlar qatori O'zbekistonda ham kasaba uyushmalari ish beruvchilar oldida aholining ishchi qatlamlari manfaatlarining asosiy himoyachilaridan biri xisoblanadi, hamda ishchilar huquqlarini amalga oshirishga yordamlashadi, mehnat munosabatlaridagi obro va huquqlarni yaxshilaydi va ish haqining darajasini ta'minlaydi. Ushbu maqsada davlat organlari va ish beruvchilar bilan hamkorlikda ikki yoki uch tamonlama maslahatlashuvlarni olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchigiga ko'ra, kasaba uyushmalarini tuzish, faoliyatini tugatish, hisobga qo'yish va qayta tashkil etish qonun va qonun osti hujjatlarida qayt etilgan bo'lib, qonun loyihasiда tartiblari alohida ko'rsatib o'ilangan. Ushbu qonun loyihasi kasaba uyushmalarini ro'yxatga olishdagi to'siqlar va buyrokiratik omillarni bartaraf etilinishi nazarda tutilgan.

Shuningdek nafaqat O'zbekistonda boshqa davlatlarning kasaba uyushmalari ish beruvchilar oldida insonlarning ishchi toifalari manfaatlarining asosiy himoyachilari xisoblanadi, hamda ishchilar huquq va ma'nfatlarini himoya qilish va amalga oshirishga yordamlashadi, kasaba uyushmalari munosabatlarini yaxshilaydi va ish haqining meyoriy darajalarini ta'minlaydi. Kasaba uyushmalari davlat organlari va ish

¹ Xalq so'zi gazetasi 11 Noyabr 2021 y

beruvchilar bilan muzokaralar, ikki yoki uch tomonlama munorazaralarni tashkil qiladi.

NATIJALAR

Shuni takidlash joizki yaqin o'tmishgacha O'zbekistonda kasaba uyushmalari qaysidur ma'noda shunchaki ko'rgazma uchun bor edi, xolos. Davlat organlari ularning faoliyati va huquqlarini norasmiy ravishda cheklagan, va yana norasmiy bosimlar ostida qolgan edi. Buga kasaba uyushmalarining ichki tizimdagи yetarlicha yaxshi mutaxassislarning yetishmasligi va manfatlarning to'qnashuvi birigina misol qilsak boladi.

Hozirgi kunga kelib yangi O'zbekiston davlatini barpo etishda buday qaloq va kamchiliklarni oldini olishga ko'plab amaliy ishlar natijalarini ko'rishimiz mumkin, bunga misol kasaba uyushmalari misolida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston kasaba uyushmalari xodimlari va faolariga tabrigida shuni takidlab o'tdilar "Ma'lumki, biz o'z oldimizga Yangi O'zbekistonni barpo etishdek buyuk vazifani strategik maqsad qilib qo'ydik. Shu ma'noda, "Inson qadri uchun" g'oyasini umummilliy harakatga, yurtimizni keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylantirishda davlat va jamoat tashkilotlari bilan bir qatorda, hech shubhasiz, kasaba uyushmalari ham muhim o'rin tutadi."² Hamda shu qatorda davlatimizda kasaba uyushmalarida qilinayotkan natijalar ham takidlab o'tildi, "Keyingi yillarda sohada xalqaro hamkorlik aloqalari mustahkamlanib bormoqda. Xususan, O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Kasaba uyushmalari umumkonfederatsiyasiga a'zolikka qabul qilindi, Markaziy Osiyo davlatlarining turdosh tashkilotlari bilan kelishuvlar tuzildi, Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi."³ Keying yillar davomida ushbu faliyat uchun davlatimiz rahbari tamonidan qilinayotgan ishlarni ko'plab misollarda keltirishimiz mumkin.

O'rganishlar jarayonida ilmiy tadqiqotlar, adabiyotlar tahlili, nazariya, gipotezalar hamda siyosiy tahlillarining natijalariga ko'ra, siyosiy tahlil va tadqiqotlarini tashkil qilish, rivojlantirish dunyoda va O'zbekistonda kasaba uyushmalari harakati ijtimoiy va siyosiy hayotda ahamiyatini oshirish siyosiy jarayonlarga muhim ahamiyat kasb etilinadi. Kasaba uyushmalar faoliyati jamiyatning ishchilar qatlami hayotida asosiy obektini tashkil qiladi. Chunki jamiyatning rivojida ijtimoiy-iqtisodiy aholining mehnatga loyoqatli qismi asosiy mezonlaridan bo'lib hizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida Kasaba uyushmalarining ishchilar manfatini himoya qilish, ishchilarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jamiyat barcha qatlamlarida mehnat munosabatlarini to'laqonli shakllanirishdek muhim vazifalaridan hisoblanadi.

² Daryo.uz sayitidan 11.11.2021y

³ Ushbu manba

Natijalarini keng ko'lamli qilib, kasaba uyushmalarining birlamchi vazifasi ijtimoiy va mehnat manfaatlarini hamda xodimlar huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq.

MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi prezidenti muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning O'zbekiston kasaba uyushmalariga bag'ishlab 2022 yilning 11 noyabr kuni tadbiridagi besh yarim millondan ortiq a'zosiga ega bo'lgan kasaba uyushmalariga tabrige davomida har yili 11-noyabr "kasaba uyushmalari" kuni sifatida nishonlashga taklif bildirdi, va bu mustaqilligimiz tarixida o'chmas iz bo'lib qoldi desak mubolag'a bo'lmaydi albatta.

Hozirgi kundagi qonunchlika asoslanib aytadigan bo'lsak kasaba uyushmalari faoliyatiga aloqador ko'plab misollarni ko'rishimiz mumkin jumladan;

- ❖ Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish ixtiyoriydir⁴
- ❖ Kasaba uyushmalari to'g'risida qonunchlik palatasi tamonidan qbul qilingan va senat tamonidan maqullangan qonun
- ❖ Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida qonunchlik palatasi tamonidan qbul qilingan va senat tamonidan maqullangan qonun
- ❖ O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksi

Ushbu misollarni juda ko'p davomli tarzda davom etish mumkin albatta lekin yuqorida keltirilgan qonunlardan biriga to'xtalsak mazuning ochilishiga aniqlik kiritgan bo'lamiz.

O'zbekiston Respublikasi kasaba uyushmalari to'g'risidagi qonunig 5-moddasiga etibor qaratadigan bo'lasak "kasaba uyushmalarining asosiy prinsiplari" bir talay muhokamaga asos bo'ladigan bir talay prinsiplarni ko'rishimiz mumkin Kasaba uyushmalari faoliyatini asosiy prinsiplaridan quydagilar hisoblanadi.

- Qonuniylik
- Ixtiyoriylik
- Kamsitishga yo'l qo'yilmaslik
- Mustaqil va o'zini o'zi boshqarish
- Teng huquqiylik
- Oshkora va ochiqlik

Ayni paytlarda yuqorida keltirilgan "kasaba uyushmalari" prinsiplariga demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar hamda fuqorolarni o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari orqali usbu qonunlar amalda ishlayotganligi ijobiy fikirlar bilan keng muhokamalarga sabab bo'lmoqda.

⁴ O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 73-modda *Mazkur yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. Lex.uz 01.05.2023*

XULOSA

Tadqiqotimiz mobaynida o‘rganilgan kasaba uyushmalari va ularning davlat organlari bilan bog‘liq yo‘nalishlar hamda muammolarni quyidagi tarzda guruhash mumkin:

❖ Kasaba uyushmalari faoliyati jamiyatning siyosiy hayotida faol aralashuvi muhim ahamiyatga egaligi shundaki, bunda asosan inson omili birlamchi vazifani bajaradi.

Jamiyatimizda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy kamchliklarni va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldini olishda asosiy bo‘g’inlaridan biri deb hisoblablaniladi.

Hozir davom etayotgan yangi O’zbekistining iqtisodiy o’sish davrida dunyo davlatlarida moliyaviy-iqtisodiy inqiroz – kasaba uyushma harakatiga tubdan yangi iqtisodiy vaziyatda ishchilar manfaatlari va huquqlarini himoya qilish va samarali yo‘nalishlarni belgilash vazifasini qo‘yishmoqda. Yangi O’zbekistonni qurish jarayonida Kasaba uyushmalarining ijtimoiy-siyosiy va mehnat munosabat-larining to’laqonli sub’ektlari sifatida faoliyat ko‘rsatishida ularning o‘zlari, davlat organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ham manfaatdor bo‘lishlari lozim.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mirziyayev Shavkat Miromonovich – O’zbekiston kasaba uyushmalariga tabrigidan Xalq so’zi gazetasi 11 Noyabr 2021 y
2. O’zbekiston Respublikasi mehnat kodeksi Lex.uz 24.07.2018 y
3. O’zbekiston Respublikasi mehnatni muhofaza qilish to’g’risidagi qonun O’zbekiston Respublikasi Qonuni, 22.09.2016 yildagi O’RQ-410-son
4. MEHNAT HUQUQI Toshkent-2006
5. O’RQ-588-son 06.12.2019. Kasaba uyushmalari to‘g’risida (lex.uz).
6. O’zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi – Vikipediya (wikipedia.org).
7. O’zbekiston Kasaba Uyushmalari Federatsiyasining Portali (kasaba.uz)